

XORIJIY TIJORAT BANKLARI AKSIYALARI KOTIROVKALARI VA DIVIDEND TO'LOVLARI TAHLILI

ANALYSIS OF SHARE QUOTATIONS AND DIVIDEND PAYMENTS OF FOREIGN COMMERCIAL BANKS

¹Ubaydullayev Dilshod
Zuvaytovich

¹O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qashqadaryo viloyati
bosh boshqarmasi boshlig'i. **ORCID:** 0009-0008-5562-2460,
E-mail: dilshod_ubaydullayev@cbu.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur tadqiqotda xorijiy tijorat banklarida dividend siyosatining aksiyalar bahosiga ta'siri tahlil qilingan. Tijorat banklari ustav kapitalida davlat ulushi mavjudligining dividend siyosatiga hamda davlat qarziga ta'siri o'rganilgan. Xitoy tijorat banklari bozor kapitallashuvi tahlili o'tkazilgan. Shuningdek, Xitoy sanoat va savdo banki misolida aksiyalar kotirovkasi, aktivlari dividend to'lovlari tadqiq qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar va tadqiqotlar asosida xulosalar shakllantirilgan.

Eng. - This study analyzes the impact of dividend policy on share prices in foreign commercial banks. The influence of state ownership in the charter capital of commercial banks on dividend policy, as well as its relationship with government debt, is examined. An analysis of the market capitalization of Chinese commercial banks is also conducted. In addition, the study investigates share quotations, assets, and dividend payments using the example of the Industrial and Commercial Bank of China. Based on the conducted analyses and research findings, relevant conclusions are formulated.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ aksiyalar, kotirovka, davlat ishtirokidagi banklar, dividend, bozor kapitallashuvi.
❖ shares, quotations, state-owned banks, dividend, market capitalization.

Kirish.

Jahon moliya bozorlarida tijorat banklari aksiyalari investitsiya obyekti sifatida likvidli va eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlardan biridir. Ayniqsa, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi yirik tijorat banklari aksiyalari kotirovkalari xalqaro kapital harakati, investorlar ishonchi hamda banklarning moliyaviy barqarorligini aks ettiruvchi muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, aksiyalar bozor bahosi bilan dividend

to'lovlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Aksiya kotirovkasi investorlarning bankning kelajakdagi daromadligi, risk darajasi va korporativ boshqaruv sifatiga bergan o'ziga xos bahosini ifodalaydi. Dividend to'lovlari esa bankning sof foydasi, kapital yetarliligi va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish siyosati bilan bevosita bog'liq. Xalqaro amaliyotda dividend ko'rinishidagi daromadlilik aksiya kotirovkasiga nisbatan

hisoblanadi va u aksiya bahosi oshganda pasayishi, aksiya bahosi tushganda esa o'sishi mumkinligi moliya nazariyasida asoslangan. Shu bois, xorijiy tijorat banklari misolida mazkur ikki ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda jahon bank tizimida foiz stavkalari, inflyatsiya bosimi, geosiyosiy risklar va raqamli transformatsiya jarayonlari aksiyalar kotirovkalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, AQSh Federal zaxira tizimi va Yevropa Markaziy banking pul-kredit siyosati banklar aksiyalari narxiga kuchli ta'sir qiladi, bu esa dividend siyosati qayta ko'rib chiqilishiga olib keladi. Natijada investorlar nafaqat aksiya bahosining o'sishidan, balki barqaror dividend oqimidan ham manfaatdor bo'lib qolmoqda.

Xorijiy banklar tajribasida dividendlarning muntazam va o'suvchan tarzda to'lanishi aksiya kotirovkasining uzoq muddatli o'sishiga ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Chunki bozor ishtirokchilari dividend siyosatini bank moliyaviy barqarorligi va foydasini oshirish salohiyatining muhim signali sifatida qabul qiladi. Ayniqsa, JPMorgan Chase, Bank of America, HSBC, ICBC kabi yirik banklarda dividend siyosati va aksiya bahosining dinamikasi o'rtasida mustahkam bog'liqlik kuzatiladi.

Mamlakatimizda tijorat banklarini transformatsiya qilish, IPO va SPO amaliyotini kengaytirish, xususi va xorijiy investorlarni jalb qilish jarayonlari jadallashmoqda. Bunday sharoitda xorijiy tijorat banklari aksiyalari kotirovkalari va dividend siyosatini tahlil qilish mahalliy banklar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, dividendlarning shaffof, barqaror va muntazam to'lanishi kapital bozorida banklar aksiyalariga talabni oshiradi.

Shuningdek, mazkur mavzuda ilmiy tadqiqot olib borish aksiya bahosini prognoz qilish, dividend siyosati samaradorligini

baholash, bankning bozor kapitallashuvini oshirish omillarini aniqlash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan, xorijiy tijorat banklari aksiyalar kotirovkasi va dividend to'lovlari o'zaro bog'liqligini tadqiq etish bugungi kunda moliya bozori, korporativ boshqaruv va bank kapitallashuvi nuqtai nazaridan dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Niranjan Tripathy, Da Wu, Yi Zheng tomonidan "1986-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda AQSh bank xolding kompaniyalarining katta namunasidan foydalanib, banklar dividendlarining bir chorakka kechikishi va joriy chorakdagi moliyaviy holati o'rtasida ijobiy bog'liqlik borligini aniqlashgan. Lekin bu ijobiy bog'liqlik kapital yetarliligi past bo'lgan banklar va 2007-2009-yillardagi moliyaviy inqiroz davrida ko'proq namoyon bo'lishi namoyon bo'lgan. Bu esa ushbu xususiyatlarga ega banklar uchun dividendlardan o'zlarining moliyaviy holati haqida ma'lumot yetkazish uchun foydalanish zarurligini ham ko'rsatadi. Qo'shimcha tahlillar ko'rsatadiki, umumiy to'lov banklarning moliyaviy holati bilan ham ijobiy bog'liq va dividendlar va moliyaviy holat o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik xususi banklarga ham tegishli, ammo ular uchun bu ko'rsatkich davlat banklariga qaraganda kuchsizroq" [1]. Taqsimlanmagan foyda dividendga yo'naltirilmasdan bank ixtiyorida qoldirilishi moliyaviy inqiroz sharoitlarida ahamiyatga ega. Dividendlarning muntazam kechiktirilishi aksiyadorlar va investorlar ishonchini keskin pasaytiradi va oxir-oqibat aksiyalar kotirovkalari pasayishi fonida boshqa banklar tomonidan qo'shib olinishiga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun AQShdagi banklar choraklik dividendlar ustuvorligiga alohida e'tibor qaratishadi.

José Nuno Sacadura, Sónia R. Bentes tadqiqotida "2007-2021-yillar oralig'ida Yevropa banklarida davlat mulkdorligining dividend siyosatiga ta'siri o'rganilgan. Agentlik

nazariyasiga tayangan holda hamda 31 ta mamlakatdagi fond bozorida listingdan o'tgan 217 ta bank bo'yicha noyob, qo'lda shakllantirilgan ma'lumotlar bazasidan foydalanib, davlat ulushining turli darajalari dividend to'lash ehtimoli va hajmiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan. Empirik natijalar murakkab va nozik bog'liqlikni ko'rsatadi: davlatning konsentratsiyalashgan nazorat ulushi dividend to'lash moyilligini sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa rentani tortib olish gipotezasi bilan mos keladi. Biroq davlatning nazorat qilmaydigan, ya'ni minoritar ulushi dividend to'lovlari ehtimolining yuqoriroq bo'lishi bilan bog'liq. Mazkur tafovut shuni anglatadiki, davlatning ozchilik ulushi institutsional investorlar xatti-harakatiga o'xshash tarzda namoyon bo'lishi mumkin, bunda reputatsion omillar va shaffoflikni ta'minlash rag'batlari asosiy rol o'ynaydi. Olingan xulosalar barcha regressiya modellarida barqaror bo'lib, dividend to'lov koeffitsiyentining kengaytirilgan shakli muqobil bog'liq o'zgaruvchi sifatida qo'llanganda ham o'z tasdig'ini topadi. Bundan tashqari, 2015-yilda Yevropa Bank Ittifoqi joriy etilgandan keyin davlat mulkdorligining ta'siri sezilarli ravishda susaygani aniqlandi. Bu esa Yagona nazorat mexanizmi orqali amalga oshiriladigan millatlararo nazorat milliy hukumatlarning bank korporativ boshqaruvidagi ixtiyoriy ta'sirini cheklaganini ko'rsatadi. Ular tadqiqot davlat mulkdorligiga doir adabiyotlarga muhim hissa qo'shadi, chunki u davlat egaligiga nisbatan yagona va bir xil yondashuvni shubha ostiga qo'yadi. Tadqiqot natijalari dividend siyosatini shakllantirishda mulkdorlik chegaralari, nazorat darajasi hamda institutsional muhitning ahamiyati nihoyatda muhim ekanligini ko'rsatadi" [2]. Shuni qayd etish lozimki, tijorat banklarida davlat ulushi yuqoriligi korporativ boshqaruv mustaqilligini cheklab qo'yishi mumkin. Boshqa tomondan ma'lum bir davlatning kvazi funksiyalari o'zi egaligidagi banklarga ham yuklatilish

holatlarida o'z-o'zidan dividend amaliyotlarining keyingi darajalarga tushishiga olib keladi. Yana alohida ta'kidlash kerakki, agar hukumat aksiyalar vositasida arzon moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyatidan samarali foydalanish har qanday biznes sub'ekti kabi tijorat banklari hamda umumiy milliy iqtisodiyot raqobatdoshligi ortishiga xizmat qilishini anglab yetgan bo'lsa, u holda dividend to'lovlari muntazamligiga alohida e'tibor qaratadi. Natijada investitsion jozibadorlik ortishi hisobiga aksiyalar bozor bahosi ko'tariladi. Bu o'z navbatida banklar tomonidan ham arzon moliyaviy resurs jalb qilinishi natijasida iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit arzonlashuviga olib keladi yoki tijorat banklari foydasi ortishiga xizmat qiladi. Sof foyda ortishi hisobiga davlat uchun soliq to'lovlari ortishi bilan birga dividend to'lovlari va solig'i ortishini ham kutish mumkin bo'ladi.

Ushbu maqolada hukumat qarzi va davlat mulkdorligining korporativ dividend siyosatiga birgalikdagi ta'siri Xitoydagi mahalliy hukumat qarzi hamda A-aksiyalar bozorida listingdan o'tgan kompaniyalar ma'lumotlari asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy hukumatlarning ortiqcha qarzdorligi mahalliy davlat korxonalarida (SOE) naqd dividendlar hajmining oshishiga olib keladi. Bu esa yuqori qarz bosimi sharoitida mahalliy hukumatlar dolzarb fiskal muammolarni hal etishda davlat korxonalari dividendlariga tayanishini anglatadi. Mazkur ta'sir, ayniqsa, mahalliy hukumatlar davlat korxonalari ustidan kuchliroq nazoratga ega bo'lgan hududlarda hamda mahalliy qarz koeffitsiyenti 100 foizlik xavfli ogohlantirish chegarasidan oshgan holatlarda yanada kuchli namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori qarzdorlikka ega mahalliy hukumatlar markaziy hukumatning qarz risklarini kamaytirish talablarini bajarish va moliyalashtirish xarajatlarini pasaytirish maqsadida eng avvalo shoshilinch qarz yukini yengillashtirishga ustuvor ahamiyat beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari davlat korxonalari ushbu talablarni ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlarini, shuningdek operatsion xarajatlarni qisqartirish hamda bank kreditlarini oshirish orqali qondirishini ko'rsatadi. Amalda hukumat qarzining muhim qismi davlat korxonalari bank kreditlariga aylantirilishi aniqlangan. Yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat korxonalarining yuqori naqd dividend to'lovlari mahalliy hukumatlarga muddati kelgan yashirin hukumat qarzlarini qayta moliyalashtirish uchun obligatsiyalar chiqarish hajmini qisqartirish, shuningdek yangi chiqarilayotgan hukumat qarzlari bo'yicha foiz spredini kamaytirish imkonini beradi. Mazkur xulosalar korporativ resurslarni davlat manfaatlarini yo'lida qayta taqsimlashdan yetarli darajada himoya qila olmaydigan ko'plab mamlakatlar va hududlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega" [3]. Fikrimizcha, davlat byudjetidagi defitsit, davlat qarzini qoplash sharoitida davlat egaligidagi korxonalar, shuningdek davlat ishtirokidagi tijorat banklari tomonidan muntazam dividend to'lovlari amalga oshirilishi ikki tomonlama samara keltiradi. Birinchidan, davlat byudjeti qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lishi natijasida byudjet defitsitini kamaytirish bilan birga davlat qarzini qoplash imkoniyati ortadi. Ikkinchidan esa davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari investitsion jozibadorligi ortishi hisobiga aksiyalar kotirovka ko'tarilishi natijasida xususiylashtirish imkoniyatlari ortadi va fond bozori rivojlanishi ta'minlanadi. Bunda dividendlar depozitlar daromadligidan yuqori bo'lishi muhimdir. Qo'shimcha sifatida ta'kidlashimiz lozimki, davlat ulushini xususiylashtirishdan davlat byudjetiga daromadlar vaqtinchanlik ahamiyat kasb etsada, xususi sektoridagi taraqqiyot istiqbolda soliq tushumlari ortishiga xizmat qiladi.

R. Qurbonov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra "Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda zamonaviy yo'llarni, yana ham soddaroq qilib aytadigan

bo'lsak, xorijda o'zining ijobiy natijasini bergan tajribalarni kengroq qo'llash lozim. Xususan, banklarning o'z mablag'lari tarkibidagi qo'shilgan kapitalning hajmini oshirish orqali ularning kapitallashuv darajasini oshirish va barqarorlikka erishish maqsadga muvofiq" [4]. Tijorat banklari xususi kapitalida qo'shilgan kapitalning yuqori bo'lishi jalb qilingan kapital bahosining pastligidan dalolat beradi. Bu esa yuqori rentabellik xizmat qiladi. Pirovardida tijorat banklari bozor kapitallashuvi maksimalashib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Xorijiy tijorat banklari aksiyalari kotirovkasi va dividend to'lovlari o'zaro bog'liqligi bo'yicha mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xitoy tijorat banklari aksiyalari jahon moliya bozorida eng barqaror va yuqori kapitallashuvga ega moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Xitoy sanoat va savdo banki, Xitoy qurilish banki, Xitoy banki, Xitoy agrobanki, Xitoy tijoratchilar banki kabi yirik tijorat banklari aksiyalari kotirovkalari va dividend siyosati xalqaro investorlar uchun muhim investitsion indikator vazifasini bajaradi. 2026-yil holatiga ko'ra mazkur banklar global bank kapitallashuvida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda, bu esa ularning aksiyalariga bo'lgan talab yuqori ekanini anglatadi.

So'nggi yillarda Xitoy banklari aksiyalari kotirovkalariga bir qator makroiqtisodiy va institutsional omillar ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi, ko'chmas mulk bozoridagi inqiroz, geosiyosiy xavflar va foiz marjasining qisqarishi aksiyalar dinamikasiga bosim qildi. Shunga qaramay, 2026-yil mart oyi holatiga ko'ra Xitoy bank aksiyalari yana o'sish trendiga qaytdi, ayniqsa aksiyadorlik ulushlariga qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bo'yicha reguliyator islohotlari

bozorda ijobiy signal sifatida qabul qilindi. 2026-yil 30-mart kuni yakunlariga ko'ra dunyodagi bozor kapitallashuviga ko'ra

Top-100 ta tijorat banklarining 16 tasi Xitoy banklari ekanligi buning tasdig'i sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Dunyodagi bozor kapitallashuviga ko'ra Top-100 tijorat banklari tarkibidagi Xitoy banklari, mlrd. AQSh dollarida [5]

Yuqoridagi raqamlardan ayon bo'lmoqdaki, Xitoy sanoat va savdo banki (ICBC) bozor kapitallashuviga ko'ra Xitoy banklari ichida birinchi, dunyoda esa JP Morgan Chasedan keyingi o'rinda, ya'ni ikkinchi o'rinda turadi. Xitoy sanoat va savdo

bankining jami aktivlar hajmi 2025-yil 30-iyun holatiga 7,3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi [6]. Aksiyalar bahosi o'zgarishi 2006-2025-yillar yakunlari bo'yicha quyidagicha (2-rasm).



2-rasm. Xitoy sanoat va savdo banki (ICBC) aksiyalari kotirovkasi dinamikasi [7]

Xitoy sanoat va savdo banki (ICBC) aksiyalari kotirovkasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2006-yil 31-oktabrda 0,17 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-aprel holatiga 0,88 AQSh dollarigacha ko'tarilgan. 2022-yil 31-oktyabrda bitta aksiya kotirovkasi 0,35 AQSh dollarini

tashkil etgani holda umumiy tendensiyada o'sha sanadan buyon asosan o'sish qayd etilmoqda. Bunga bankning muntazam dividend amaliyotlari asosiy ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Xitoy sanoat va savdo banki (ICBC) dividend tarixi [8]

Reestr yopilish sanasi	Dividend miqdori	To'lov sanasi	Daromadlilik
15.12.2025	0.1414	15.12.2025	5.64%
14.07.2025	0.1646	14.07.2025	3.85%
07.01.2025	0.1434	07.01.2025	6.66%
16.07.2024	0.3064	16.07.2024	4.94%
17.07.2023	0.3035	17.07.2023	6.23%
12.07.2022	0.2933	12.07.2022	6.12%
06.07.2021	0.266	06.07.2021	5.12%
30.06.2020	0.2628	30.06.2020	5.01%
03.07.2019	0.2506	03.07.2019	4.23%
13.07.2018	0.2408	13.07.2018	4.25%
11.07.2017	0.2343	11.07.2017	4.48%
08.07.2016	0.2333	08.07.2016	5.08%
07.07.2015	0.2554	07.07.2015	4.40%
20.06.2014	0.2617	20.06.2014	7.05%
26.06.2013	0.239	19.07.2013	6.04%
14.06.2012	0.203	12.07.2012	4.83%
15.06.2011	0.184	08.07.2011	0.00%
27.05.2010	0.17	25.06.2010	0.00%
04.06.2009	0.165	30.06.2009	0.00%
18.06.2008	0.133	26.06.2008	0.00%
21.06.2007	0.016	28.06.2007	0.00%

Yuqoridagi tahlillar ko'rsatmoqdaki, Xitoy sanoat va savdo banki (ICBC) 2007-yildan buyon muntazam dividend to'lovlarini amalga oshirib kelmoqda. 2025-yil davomida 3 marta dividend to'lovlari amalga oshirilgan. Bunda 2025-yil 7-yanvardagi dividend to'lovlari 2024-yil yakunlari asosida amalga oshirilgan bo'lsada, bank tomonidan yarim yillik dividendlarga o'tilgani investitsion jozibadorlikni oshirgan. Boshqa tomondan dividend miqdori va daromadlilikning ham so'nggi yillarda oshib borayotganligi o'z-o'zidan investorlar e'tiborini tortgan.

Natijada bank aksiyalari kotirovkasi ko'tarilishda davom etmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan, Xitoy banklari aksiyalari kotirovkalari va dividend to'lovlari o'rtasida bevosita korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Dividend siyosatining barqarorligi aksiyalarning fundamental qiymatini qo'llab-quvvatlaydi, bozordagi volatillikni kamaytiradi va institutsional investorlar uchun "himoyaviy aktiv" xususiyatini shakllantiradi. Ayniqsa, yarim yillik dividend amaliyotiga o'tish aksiyalarga bo'lgan talabni yanada oshirishi tabiiy hisoblanadi.

Shu bilan birga, aksiyalar kotirovkalariga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida sof foyda dinamikasi, sof marjinal foydaning o'sishi, muammoli kreditlar ulushining pasayishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari muhim o'rin tutadi. Masalan, 2026-yilda Xitoy hukumati davlat banklariga 300 mlrd. yuan miqdorida kapital yo'naltirish rejasini e'lon qildi, bu esa aksiyalar kotirovkalariga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Garchi bunda davlat ulushi orsada nazorat nazorat paketga egalikka o'tilmaydi. Qo'shimcha resurs jalb qilinishi sof foydani oshirish uchun asos sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatda aksiyalarning arzon moliyaviy resurs jalb qilish vositasiga ekanligi, bu esa raqobatda ustuvorlik berishi anglab yetilganligi shubhasiz investorlar manfaatlariga ustuvorlik berilishiga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida banklar bozor kapitallashuvi ortishiga ham xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarida dividend to'lovlarining muntazamligi moliyaviy barqarorlik va bozor ishonchining muhim indikatorini hisoblanadi. AQSh va Yevropa banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, dividendlarning kechiktirilishi yoki qisqarishi, ayniqsa moliyaviy inqiroz sharoitida, investorlar ishonchining pasayishiga va aksiyalar kotirovkalari tushishiga olib keladi. Shu bois banklar uchun choraklik dividend siyosati tijorat banklari uchun ham kapital bozorida ijobiy signal vazifasini bajaradi.

Davlat mulkdorligining darajasi dividend siyosatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Davlatning nazorat paketidagi yuqori ulushi bank va korxonalarda dividend to'lash ehtimolini pasaytirishi mumkin, chunki bunday holatda korporativ boshqaruv mustaqilligi cheklanadi va resurslar davlatning qisqa muddatli fiskal vazifalariga yo'naltiriladi. Aksincha, davlatning minoritar ishtiroki shaffoflik va reputatsion omillar hisobiga dividendlar barqarorligini kuchaytirishi mumkin.

Davlat qarzi yuqori bo'lgan sharoitda davlat ishtirokidagi banklar va korxonalar dividendlari byudjet defitsitini yumshatishning qo'shimcha manbasiga aylanadi. Xitoy tajribasi ortiqcha mahalliy davlat qarzi bosimi sharoitida davlat korxonalari dividendlari byudjet va qarz majburiyatlarini moliyalashtirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Bu holat davlat ishtirokidagi tijorat banklari uchun ham dolzarb bo'lib, dividendlar davlat moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash vositasiga aylanadi.

Muntazam dividend to'lovlari banklar kapitallashuvi va xususiyashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Barqaror dividend siyosati aksiyalar bozor bahosini oshiradi, investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi va tijorat banklariga arzon kapital jalb qilish imkonini yaratadi. Bu esa nafaqat banklar foydaliligi, balki milliy iqtisodiyotda kredit resurslarining arzonlashuvi va fond bozorining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

2026-yil 30-mart kuni yakunlariga ko'ra dunyodagi bozor kapitallashuviga ko'ra Top-100 ta tijorat banklarining 16 tasi Xitoy banklaridir. So'nggi yillardagi iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi, ko'chmas mulk bozoridagi inqiroz, geosiyosiy xavflar va foiz marjasining qisqarishi aksiyalar dinamikasiga bosim qilgan bo'lsada Xitoy banklari aksiyalari yana o'sish trendiga qaytgan. Bunda aksiyadorlik ulushlariga qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bo'yicha regulyator islohotlari bozorda ijobiy signal sifatida qabul qilingan.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, xorijiy tijorat banklari aksiyalari kotirovkalari va dividend to'lovlari tahlili ularning yuqori moliyaviy barqarorligi, dividend jozibadorligi va davlat qo'llab-quvvatlovi tufayli xalqaro kapital bozorida raqobatbardosh aktiv sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Mazkur tajriba O'zbekiston tijorat banklari uchun ham dividend siyosatini takomillashtirish, aksiyalar likvidligini oshirish va bozor kapitallashuvini oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Niranjan Tripathy, Da Wu, Yi Zheng. Dividends and financial health: Evidence from U.S. bank holding companies. // *Journal of Corporate Finance*. Volume 66, February 2021.
2. José Nuno Sacadura, Sónia R. Bentes. Does government ownership influence the dividend payments of European banks? // *Research in International Business and Finance*. Volume 79, July 2025.
3. Jing Lin, Yuetong Lu, Mingshan Zhou, Yunbi An. Government debt, government ownership, and corporate cash dividends. // *Journal of Corporate Finance*. Volume 99, June 2026.
4. Qurbonov R. Banklar kapitallashuv darajasini oshirishning dolzarb masalalari. // *Iqtisodiyot va ta'lim*, 2022-yil 4-son. – B. 96–101.
5. <https://companiesmarketcap.com/banks/largest-banks-by-market-cap/>
6. <https://companiesmarketcap.com/icbc/total-assets/>
7. <https://companiesmarketcap.com/icbc/stock-price-history/>
8. <https://www.investing.com/equities/icbc-ss-dividends>